Xususan, 2024-yilda avtomobil yo'llari sohasida jami 205 nafar shaxs (2023-yilda – 289 nafar, 2022-yilda – 190 nafar) turli korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etgani uchun javobgarlikka tortilgan. Mazkur jinoyatlar, asosan, avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash, ularni ekspluatatsiya qilish, yo'l xo'jaligi tashkilotlarini saqlash xarajatlari uchun ajratilgan budget mablag'larini talon-toroj qilish, davlat xaridlari va tender jarayonlarida suiiste'molchilik hamda boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq bo'lgan [4] (1-rasm). Shu bilan birga, sohada xususiy sektor subyektlari tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ulushi ortib borayotgani kuzatilmoqda.

Yo'l-qurilish sohasida jinoyat sodir etgan shaxslar soni




1-rasm. Yo'l qurilishi sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar soni

Korrupsiyaviy jinoyatlarga qo'l urgan xodimlarning tashkilotlar bo'yicha taqsimoti o'rganilganda quyidagi holat aniqlangan (2-rasm):

- Avtomobil yo'llari qo'mitasiga tegishli korxona va tashkilotlar xodimlari – 94 nafar (2023-yilda – 101 nafar, 2022-yilda – 121 nafar);
- tadbirkorlik subyektlari – 59 nafar (2023-yilda – 123 nafar, 2022-yilda – 59 nafar);
- tuman hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring korxonalari – 32 nafar (2023-yilda – 31 nafar, 2022-yilda – 10 nafar);
- obodonlashtirish boshqarmalari – 12 nafar (2023-yilda – 24 nafar);
- tuman hokimliklari va boshqa tashkilotlar xodimlari – 8 nafar.
- Ushbu xodimlar yo'llarni qurish hamda ta'mirlash jarayonidagi korrupsion jinoyatlarni sodir etgan.

Tashkilotlar bo'yicha taqsimoti



2-rasm. Korrupsiyaviy jinoyatga qo'l urgan xodimlar sonining tashkilotlar bo'yicha taqsimoti

Hududlarda kadrlar hamda pudratchi tashkilotlar bilan ishlash faoliyati yetarli darajada izchil va manzilli tashkil etilmaganligi sababli mazkur toifadagi jinoyatlar uchun

javobgarlikka tortilgan shaxslar soni quyidagicha taqsimlangan (3-rasm):

Andijon viloyati – 22 nafar (2023-yilda – 18 nafar, 2022-yilda – 52 nafar);

Buxoro viloyati – 3 nafar (2023-yilda – 11 nafar, 2022-yilda – 6 nafar);

Jizzax viloyati – 2 nafar (2023-yilda – 5 nafar, 2022-yilda – 5 nafar);

Qashqadaryo viloyati – 22 nafar (2023-yilda – 50 nafar, 2022-yilda – 13 nafar);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 10 nafar (2023-yilda – 30 nafar, 2022-yilda – 13 nafar);

Navoiy viloyati – 8 nafar (2023-yilda – 12 nafar, 2022-yilda – 10 nafar);

Namangan viloyati – 22 nafar (2023-yilda – 26 nafar, 2022-yilda – 14 nafar);

Samarqand viloyati – 8 nafar (2023-yilda – 22 nafar, 2022-yilda – 24 nafar);

Sirdaryo viloyati – 26 nafar (2023-yilda – 39 nafar, 2022-yilda – 19 nafar);

Surxondaryo viloyati – 19 nafar (2023-yilda – 15 nafar, 2022-yilda – 14 nafar);


Toshkent viloyati – 12 nafar (2023-yilda – 19 nafar, 2022-yilda – 15 nafar);

Toshkent shahri – 26 nafar (2023-yilda – 8 nafar, 2022-yilda – 2 nafar);

Farg‘ona viloyati – 15 nafar (2023-yilda – 25 nafar, 2022-yilda – 1 nafar);

Xorazm viloyati – 11 nafar (2023-yilda – 10 nafar, 2022-yilda – 2 nafar).


Hududlar bo'yicha javobgarlikks tortilgan shaxslar (2022–2024)



3-rasm. Korruptsiyaviy jinoyatga qo‘l urgan xodimlar sonining viloyatlar bo‘yicha taqsimoti

Budjet mablag‘larining talon-toraj qilinishi. Xususan, mazkur davrda ushbu toifadagi tergov qilingan jinoyat ishlari bo‘yicha jami 85,6 mlrd so‘m (2023-yilda – 68 mlrd so‘m, 2022-yilda – 21 mlrd so‘m)


budjet va boshqa mablag‘larning talon-toraj qilinganligi aniqlangan. Natijada 188 nafar shaxs (2023-yilda – 224 nafar, 2022-yilda – 149 nafar) jinoiy javobgarlikka tortilgan [4] (4-rasm).



4-rasm. Korruptsiyaviy jinoyatlar bo'yicha talon-taroj qilingan budjet va boshqa mablag'lar yuzasidan tergov qilingan hamda jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni

Qayd etish joizki, tahlil qilingan davrda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash uchun ajratilgan jami 71,5 mlrd so'm (2023-yilda – 50,6 mlrd so'm, 2022-yilda – 18,4 mlrd so'm) budjet


va boshqa mablag'larning talon-taroj qilinganligi aniqlangan. Natijada 124 nafar shaxs (2023-yilda – 143 nafar, 2022-yilda – 104 nafar) jinoiy javobgarlikka tortilgan (5-rasm).



5-rasm. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash uchun ajratilgan budjet va boshqa mablag'larni talon-taroj qilish holatlari hamda bu bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni

Shuningdek, mazkur davrda ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan jami 14,1 mlrd so'm (2023-yilda – 17,4 mlrd so'm, 2022-yilda – 2,6 mlrd so'm) budjet va boshqa


mablag'larning talon-taroj qilinganligi aniqlangan. Natijada 64 nafar shaxs (2023-yilda – 81 nafar, 2022-yilda – 45 nafar) jinoiy javobgarlikka tortilgan (6-rasm).



6-rasm. Ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan budjet va boshqa mablag'larni talon-taroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni

Xususan, mazkur davrda 4 nafar shaxs (2023-yilda – 3 nafar, 2022-yilda – 4 nafar) yo'l qurilishi obyektlarini olib berish yoki boshqa manfaatlar uchun pora berishga dalolat qilib, firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning pul mablag'larini egal-laganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Avtomobil yo'llari sohasidagi korrupsi-yaviy jinoyatlar uchun 2024-yilda javobgar-likka tortilgan jami 205 nafar mansabdor shaxsning 60 nafari, ya'ni 29 foizi (2023-yilda 289 nafar shaxsning 104 nafari yoki 36 foizi), muqaddam firibgarlik, pora olish yoki berish kabi korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etganligi uchun sudlangan shaxslardir (7-rasm).



7-rasm. Avtomobil yo'llari sohasida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha muqaddam sudlanganlik holatlari

Jinoyat ishlarini o'rganish natijasida avto-mobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida korrupsiyaning asosiy sxemalari aniqlangan. Ularga bajarilmagan ishlar uchun soxta hujjat-lar tayyorlash, tender va shartnomalarda qal-

loblik qilish, qurilish materiallari narxini asos-siz oshirish, yonilg'i va qurilish mahsulotlarini o'zlashtirish, hujjatlarga yolg'on ma'lumot kiritish, pora olish va firibgarlik orqali vako-latlarni suiiste'mol qilish kiradi. Aniqlangan

holatlarda ko'pincha mansabdor shaxslar va xususiy kompaniya rahbarlari jinoiy til biriktirib harakat qilgan. Bu esa sohada sistemaviy muammoning mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasidagi korrupsiya yakka holat emas, balki tizimli muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Manfaatdor shaxslar o'rtasidagi jinoiy til birikmalar va nazorat mexanizmlarining samarador emasligi bunday jinoyatlarga sharoit yaratmoqda. Qonunchilikdagi bo'shliqlar, jamoatchilik nazoratining yetarli darajada emasligi va shaffoflikning pastligi korrupsiyaning avj olishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari tahlili

2022–2024-yillar davomida O'zbekistonda avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida aniqlangan korrupsiyaviy jinoyatlar tahlili sohada tizimli va kompleks muammolar mavjudligini yaqqol namoyon etmoqda. Har uch yilda ham yuqori moliyaviy zarar, mansabdor shaxslarning jinoiy sxemalarda ishtiroki va nazorat mexanizmlarining samarador emasligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yo'l-transport infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida, aholi turmush sifatini oshirishda va logistik zanjirlarni samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq sohadagi yirik moliyaviy mablag'lar aylanmasi, tender va davlat xaridlari jarayonlarida shaffoflikning yetarli emasligi, shuningdek, nazorat mexanizmlarining samarador emasligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi transport infratuzilmasi, xususan, yo'l qurilishi va rekonstruksiya tender jarayonlarida bir qator suiiste'mollik holatlari aniqlangan. Davlat xaridlarida, ayniqsa, yo'l qurilishi va ta'mirlash tenderlarida, "so'nggi daqiqada" kiritilgan shartlar, manfaatdor shaxslarga tegishli pudratchilarga qulaylik yaratish, noqonuniy kelishuvlar hamda hujjatlarni soxtalashtirish kabi holatlar uchraydi.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijasida, obyektlarda qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha "tender.mc.uz" maxsus axborot portalida e'lon qilingan jami 9 ta tenderning umumiy qiymati 42 mlrd so'm bo'lib, tender g'oliblari aniqlanmasdan qurilish ishlari boshlab yuborilganligi ma'lum bo'ldi [5].

Manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlariga quyidagilar misol bo'la oladi. Masalan, Qumqo'rg'on tumanida "32-sonli oilaviy poliklinika binosini mukammal ta'mirlash" bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash jarayonini o'rganish natijasida, mazkur davlat xaridida o'zaro affillangan shaxslarga tegishli tadbirkorlik subyektlari g'oliblikni qo'lga kiritgani aniqlangan [6].

Shuningdek, "Toshkent xalqa avtomobil yo'llaridan foydalanish uchastka boshqarmasi" unitar korxonasi buyurtmachiligida o'tkazilgan 3 mlrd 220 mln so'mlik davlat xaridida 2 ta holat bo'yicha hujjatlar tadbirkorlarning o'zlari tomonidan emas, balki xarid komissiyasining kotibi tomonidan ishlatilgan kompyuterning IP-manzili orqali elektron platformaga yuklanganligi aniqlangan. Bundan tashqari, xarid komissiyasi raisi va a'zolarining ishtirokisiz, boshqa shaxslar tomonidan ularning elektron raqamli imzolari orqali xarid natijalari baholangan va imzolanganligi ma'lum bo'lgan [7].

Amaliyotda, shuningdek, poraxo'rlik orqali tender yutug'ini ta'minlash holatlari ham uchrayotgani kuzatilgan [8].

H. Rajabovning fikriga ko'ra [9], davlat xaridlari uchun yagona raqamli platformani yaratish va unda ma'lumotlarni tekshirish (data screening) amaliyotini joriy etish zarur. Shuningdek, narxlarning keskin pasayishi (20–50 %), arizalarni rad etish yoki narxlarining juda oz (1 %gacha) pasayishi holatlarini Ruminiya va Janubiy Koreya tajribasi asosida tekshirish, tender o'tkazmasdan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish amaliyotini imkon

qadar kamaytirish muhimdir. To'g'ridan to'g'ri shartnomalar faqat milliy xavfsizlik, favqulodda holatlar va mudofaa masalalarida tuzilishi mumkinligi belgilanishi lozim.

Shuningdek, Jinoyat kodeksiga "Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish" nomli alohida modda kiritish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va davlat xizmatchilari uchun davlat xaridlaridagi korrupsiya sxemalarini aniqlash va isbotlash bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish tavsiya etiladi.

Sh. Rizakulov va A. Jumanovlarning fikriga ko'ra [10], davlat xaridlari tizimini raqamlashtirish bo'yicha asosiy muammolar texnologik, tashkiliy va kadr omillariga bog'liqdir. Texnologik barqarorlik yetarli emasligi sohadagi IT infratuzilmasining ishonchsiz ishlashiga va tizim uzilishlariga olib keladi. Tashkiliy muammolar esa muvofiqlashtirishning yetarli darajada emasligi, mas'uliyatlarning noaniqligi va bo'shliqlar mavjudligini o'z ichiga oladi. Kadr resurslarining yetishmasligi esa raqamli kompetensiya va malakali mutaxassislar yetarli emasligidan dalolat beradi.

Shunga ko'ra, normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash, texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlashni rag'batlantirish, xalqaro tajribani adaptatsiya qilish hamda holistik yondashuv asosida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Sohadagi talon-toraj qilishlar asosan loyiha-smeta hujjatlarini asossiz qimmatlashtirish, bajarilmagan ishlar uchun hujjatlarni rasmiylashtirish, dublikat to'lovlar va affillangan pudratchilar orqali "aylanma" sxemalar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, Bosh prokuratura tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarda loyiha hujjatlarida asossiz qimmatlashtirish holatlari aniqlangan [11].

Yo'l qurilishida talon-toraj va sifat kamchiliklari sifatida Transport vazirligi huzuridagi inspeksiya tomonidan 2022-yilning 7 oyida 139 ta holatda jami 6,132 mlrd so'm noqonuniy sarf-xarajat aniqlangan [12].

Prezident tashabbusi bilan 2024-yildan boshlab qurilish shartnomalari, ishlar va nazorat jarayonlari raqamlashtirilmoqda, bu esa talon-torajni kamaytirishga qaratilgan [13]. Biroq kamchiliklar va o'tmishdan qolgan past sifatli nazorat tufayli ayrim yo'l obyektlarida moliyaviy intizom muammolari saqlanib qolgan.

OECD ACN (2024)ning O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi islohotlarning 5-raund monitoringi (Istanbul Anti-Corruption Action Plan) natijalariga ko'ra, xavf-bazaviy ichki audit va ochiq ma'lumotlardan foydalanish amaliyotini kengaytirish tavsiya etilgan [14].

Jahon banki sohaviy hujjatida (2020/2023–24) [15] yo'l infratuzilmasi va transport sektorining institut hamda moliyaviy tuzilmasini modernizatsiya qilish orqali korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladigan strategik choralar ko'rsatib o'tilgan. Masalan, vertikal ajratish orqali manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mumkinligi qayd etilgan. Unda yo'l sektorida institutlarning siyosat ishlab chiqish, rejalashtirish va xizmat ko'rsatish funksiyalarini ajratish orqali manfaatlar to'qnashuvi va monopoliya amaliyotlarini kamaytirish tavsiya qilingan.

Shuningdek, Yo'l qo'mitasining monopolistik tuzilmalari ajratilib, mijoz (client) va yetkazib beruvchi (supplier) funksiyalari birbiridan mustaqil bo'lishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Xususi sektor va xususi-davlat sherikchiligi (Public-Private Partnership) asosida loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish, shuningdek, tenderlarda ishtirok imkoniyatlarini kengaytirish orqali shaffoflik va samaradorlikni oshirish mumkinligi ta'kidlangan.

IMF tomonidan 2024-yilda O'zbekistonda olib borilgan IV Modda konsultasiyasi [16] natijalariga ko'ra, davlat xaridlari va Public-Private Partnership (PPP) loyihalari bilan bog'liq moliyaviy xavflarni kamaytirish bo'yicha aniq tavsiyalar berilgan. Korrupsiya xavfining oldini olish bo'yicha takliflar asosan PPP mexanizmlari bilan bog'liq bo'lib, davlat

qarzdorligi va budjet xavfini kamaytirishga qaratilgan.

L. Mardiyeva [17] tomonidan O'zbekistonda davlat xaridlarida pora, til biriktirish (bid-rigging), talon-toroj va nepotizm holatlari huquqiy-institusional nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, elektron xarid platformalarini to'liq integratsiya qilish, audit izi (audit trail) yaratish va ochiq API orqali jamoatchilik monitoringini amalga oshirish tavsiya etilgan.

E'tirof etilganidek, korrupsiyani kamaytirishda ochiq ma'lumotlar, affillanganlikni avtomatik aniqlash, xavf-bazaviy audit va jamoatchilik monitoringi muhim ahamiyatga ega.

Nazorat organlari faoliyati nuqtayi nazaridan, O'zbekistonda yo'l-transport infratuzilmasi loyihalaridagi korrupsiya xavflarini kamaytirishda tashqi (Hisob palatasi) va ichki audit, moliyaviy monitoring hamda davlat xaridlari ustidan nazorat tizimida bir qator tizimli bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Jahon bankining 2022-yilgi davlat xarajatlari bo'yicha tahlilida tashqi audit amaliyoti "formal qoidabuzarliklarni aniqlash va jarima/tuzatish tavsiyalariga asoslanib, tizimli sabablarni tahlil qilishga kam e'tibor berishi" qayd etilgan. Bu esa loyihaviy xavflarni oldindan bartaraf etish o'rniga, oqibatlarni keyinchalik bartaraf etishga moyillikni kuchaytiradi [18].

2024-yilda OECDning AKN (Anti-Corruption Network) 5-raund bazaviy monitoring hisoboti qonunchilikni yangilash va institusional qurilishda siljishlar bilan birga, jinoyatlarni fosh etish va qonuniy javobgarlikni ta'minlashda amaliyot samaradorligini oshirish, mustaqillik va muvofiqlashuvni kuchaytirish zarurligini ta'kidladi. Hisobotda davlat xaridlari, ichki nazorat va jamoatchilik hisobdorligi o'rtasidagi bog'lanishlarning yetarli darajada ishlamayotgani ham qayd etilgan.

2025-yil I choragida Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasi [19] nazoratning ustuvor ravishda "reaktiv" (oqi-

batga javob) xarakterga ega ekanini va profilaktik boshqaruv vositalarini kuchaytirishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Xalqaro "Open Budget Survey 2023" tadqiqotlari [20] mamlakatlar kesimida qonunchilik va oliy audit instituti nazoratining roli, hisobotlarning ochiqqligi va jamoatchilik ishtirokini baholaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, audit nazorati kuchli bo'lsa-da, uni ijro hokimiyati va parlament tomonidan to'liq amalga oshirishda kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bu tendensiya O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, auditorlik tavsiyalari ijrosini kuchaytirish va jamoatchilik ishtirokini institusional tarzda mustahkamlash zaruriyatini ko'rsatadi.

Nazoratning "oqibatga javob" (ex post) xususiyati ustun keladigan vaziyatlarda, profilaktik (ex ante) nazoratni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, institusional rol va vakolatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash uchun tenderdan tortib aksept va ijrogacha bo'lgan jarayonlarda muvofiqlashuv va ma'lumot almashuvini yagona raqamli dasturlar orqali amalga oshirish talab etiladi. Auditorlik tavsiyalarining ijrosini majburiy qilish hamda ularni parlament va OAV orqali jamoatchilik nazoratiga qo'yish hisobdorlikni oshiradi.

Xalqaro tajribada korrupsiyaga qarshi mexanizmlar misolida, OECD tavsiyalariga muvofiq, yo'l qurilishi va ta'mirlash loyihalarini amalga oshirishda barcha tender hujjatlari, shartnomalar va bajarilish natijalari jamoatchilik uchun onlayn rejimda ochiq bo'lishi kerak. Bu shaffoflik va hisobdorlikning muhim kafolatidir [21].

Masalan, Italiyada Transport vazirligi tasarrufidagi OpenCantieri portali orqali mamlakat ichidagi infratuzilma loyihalarining moliyalashtirilishi, xarajatlar, muddatlar va kechikishlar bo'yicha ma'lumotlar ochiq formatda taqdim etiladi. Hindistonda esa Sentral Pablik Prokyurement Portali (CPPP) barcha turdagi tovar, xizmat va qurilish tenderlari natijalari va hujjatlarini huquqiy erkinlik

asosida nashr etadi [22]. Bu mexanizmlar raqobatni oshiradi, korrupsiyaga imkoniyatlarni kamaytiradi va jamoatchilik nazoratini mustahkamlaydi.

Mustaqil audit va jamoatchilik nazorati korrupsiyaning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Buyuk Britaniyaning National Audit Office (NAO) moliya auditi (Financial Audit) va "Value for Money" (VFM) auditlari orqali nodavlat xarajatlar va davlat loyihalarining qonuniyligi hamda iqtisodiy samaradorligini tekshiradi va natijalarni parlamentga taqdim etadi. Kolumbiyaning Partnerships BC tashkiloti esa davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosidagi infratuzilma loyihalarini boshqaradi, shaffoflikni ta'minlaydi va xarajatlarning samaradorligini baholaydi. Bu jarayonda asosan umumiy audit va ishtirokchilar o'rtasidagi tenglikka e'tibor qaratiladi.

Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) hamda boshqa xalqaro taraqqiyot banklari "cross-debarment" mexanizmlarini qo'llaydi. Ushbu tizim korrupsiyada ayblangan korxona yoki shaxslarni bir nechta bank tenderlaridan bir vaqtda chetlashtirish imkonini beradi. Masalan, EBRD Enforcement Policy asosida yetarli darajada korrupsiya yoki firibgarlik aniqlangan hollarda subyektlar loyihalardan uzoq muddatga chetlatiladi [23]. AIIB Debarment List esa boshqa mustaqil davlatlar bilan muvofiqlashtirilgan holda qo'llanadi [24]. Bu mexanizmlar korrupsiyaga qarshi kuchli vosita bo'lib, insofsiz subyektlarni davlat va xo'jalik tenderlaridan uzoqlashtirish orqali korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosalar

2022–2024 yillar mobaynida O'zbekistonda umumiy foydalanishdagi va ichki avtomobil yo'llarini ta'mirlash hamda qurish uchun ajratilgan budjet mablag'larining talon-toroj qilinishi holatlari qiymat va jinoyatchilar soni jihatidan xavotirli darajada bo'lib qolmoqda. Davlat va xususiy sektordagi jinoyatlar soni dinamikasi quyidagicha:

2022 – 190 jinoyat (davlat 62 %);

2023 – 289 jinoyat (davlat 58 %);

2024 – 205 jinoyat (davlat 45,9 %).

Yuqoridagilarga asoslanib, O'zbekiston amaliyotiga mos ravishda quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Ochiq ma'lumotlar va tender shaffofligi ta'minlash uchun:

– yagona "Ochiq xaridlar" portali (e-procurement)ni Open Contracting Data Standard (OCDS)ga to'liq muvofiqlashtirish: e'londan to shartnoma ijrosigacha barcha hujjatlar, qo'shimcha kelishimlar (change orders), aktlar, to'lovlarni ochiqqligini ta'minlash;

– haqiqiy egalik (beneficial ownership) reyestrini joriy etish kerak va tenderda ishtirok uchun ushbu ma'lumotni taqdim etishni majburiy qilib qo'yish kerak, xarid portalida reyestr, soliq va bank-risk ma'lumotlari bilan API orqali integrasiya qilish;

– yagona ishtirokchi, qisqa muddat, takroriy g'olib, chegaradan ortiq narx almashtiruvchi, affillanganlik belgilarini avtomatik aniqlashga yordam beradigan qizil bayroqlar (red flags) algoritmini joriy etish.

Qonunchilikni takomillashtirish uchun:

– "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga OCDS standarti va ochiqlikni majburiy normalar sifatida kiritish;

– shartnoma ijrosi ma'lumotlarini (progress, to'lov, o'zgarishlar) ochiqlashni talab etuvchi moddalar qo'shish;

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ma'lumotlarni yashirish/xato ma'lumotlar kiritish uchun yuqori jarimalar miqdorini belgilash.

Mustaqil audit va jamoatchilik nazorati ta'minlash uchun:

– Hisob palatasi huzurida yo'l-infratuzilmaga ixtisoslashgan Value-for-Money (VfM) auditi bo'limi (ijro samaradorligiga qaratilgan) tuzish;

– yirik loyihalar (100 mlrd so'mdan katta) uchun Mustahkam mustaqil muhandis (Independent Engineer) va sifat laboratoriyasini shartnoma shartlariga kiritishni talab qilish;

– jamoatchilik monitoringi portalida esa xaritaga bog'langan (geo-tagged) foto/video-dalillar yuklash, ish grafigi va aktlar bilan solishtirish, "hisobotga javob" funksiyasini joriy qilish.

Barcha 50 mlrd so'mlik yo'l qurilishi va ta'miri shartnomalariga Transparency Internationalning Integrity Pact formatini qo'llash majburiyati joriy etilishi zarur. Mazkur pakt doirasida:

– pudratchi va buyurtmachi pora yoki hadyadan voz kechish majburiyatini oladi;

– mustaqil nazoratchi (civil monitor) tayinlanadi;

– ushbu talablar buzilgan taqdirda shartnoma bekor qilinadi va depozit/kafolat mablag'lari ushlab qolinish mexanizmi amal qiladi.

Shuningdek, pudratchilar uchun komplayens dasturi (etika kodeksi, ichki shikoyat liniyasi, manfaatlar to'qnashuvi siyosati) tenderda kvalifikatsiya sharti sifatida kiritilishi lozim.

Jahon amaliyotidagi qora ro'yxat (debarment) va "cross-debarment" mexanizmlarini tatbiq etish maqsadida Milliy Debarment reyestri qabul qilinishi kerak. Mazkur reyestrda:

– muddatli (1–5 yil) va doimiy taqiq kategoriyalari mavjud bo'ladi;

– ayb darajasiga qarab gradatsiya belgilanadi (masalan, takroriy holat – 5 yil + doimiy menejer diskvalifikatsiyasi);

– "Cross-debarment" mexanizmi orqali Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), O'zbekiston banklari (OBR) kabi qora ro'yxatlar avtomatik tarzda import qilinadi – bunday subyektlar tenderda qatnasholmaydi.

Shuningdek, reabilitatsiya mexanizmi joriy etilishi zarur. Pudratchi komplayens dasturi va mustaqil monitoringni amalga oshirgan taqdirda taqiq muddatini qisqartirish imkoniyati beriladi.

Kontrakt menejmenti va narx o'zgarishini nazorat qilish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

– agar loyiha qiymati asosiy summadan $\pm 15\%$ dan ortiq o'zgarsa, ish qayta tenderga chiqarilishi kerak;

– sement, bitum, yoqilg'i va boshqa asosiy materiallar narxi o'zgarish formulasi aniq va oldindan belgilangan bo'lishi shart;

– subpudrat limiti belgilanishi lozim: asosiy pudratchi ishning 30 %dan ortig'ini boshqa kompaniyalarga bermasligi, yashirin subpudrat holatlari aniqlansa, sanksiya qo'llanishi kerak;

– ish sifatini ta'minlash maqsadida performance bond – loyiha qiymatining 10 % miqdorida, avans uchun esa 100 % kafolat talab qilinadi;

– bajarilgan ishlar geo-teglangan foto/video va laboratoriya tekshiruv natijalari bilan hujjatlashtirilishi shart.

Manfaatlar to'qnashuvi va deklarasiyalar to'g'risidagi qonun talablari ham qo'shimcha o'zgartirishlar kiritishga muhtoj. Xarid komissiyasi a'zolari, rahbarlar va ekspertlar o'z qarindoshlari yoki bog'liq kompaniyalar bilan aloqalarini ochiq bayon qilishi shartligi talabi qonunga kiritilishi kerak. "Cooling-off" qoidasini joriy etib, tender komissiyasi a'zosi yoki buyurtmachi rahbariyati tender g'olibi kompaniyada kamida 12 oy ishlay olmasligi talabi kiritiladi. Agarda qonun buzilishi aniqlansa, shaxs komissiyadan avtomatik chiqarilishi va bu haqda jamoatchilikka xabar qilinishi lozim.

Javobgarlikni ta'minlash uchun esa har chorakda xavfli holatlar ro'yxati tuzilishi, ochiq onlayn jadvalda tender natijalari va samaradorlik ko'rsatilishi, qoida buzganlar jarima to'lashi, reytingi tushirilishi yoki tenderga qo'yilmasligi lozim.

REFERENCES

1. Uzbekistan Economic Indicators. Available at: <https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/>
2. Gazeta.uz internet-nashri. Yo'l qurilishida milliardlab so'mlik mablag'lar noqonuniy sarflangani aniqlandi [Detection of billions of soms used illegally in road construction]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/07/29/way/>
3. Prezident.uz internet-nashri. Yo'l xo'jaligi sohasi yangicha yondashuv asosida rivojlantiriladi [Road sector to be developed on the basis of new approaches]. *Official website of the President of the Republic of Uzbekistan*. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/6651>
4. Mirzayeva M.S. Bosh prokuratura jinoyat ishlari ro'yxatidan muallif ishlanmasi [Author's work from the list of criminal cases of the Prosecutor General's Office].
5. Anticorruption.uz. Davlat xaridlariga oid qonunbuzilish holatlari aniqlandi [Violations of public procurement laws have been identified]. Available at: <https://old.anticorruption.uz/uzc/item/2021/09/16/davlat-kharidlariga-oid-qonunbuzilish-holatlari-aniqlandi>
6. Anticorruption.uz. Davlat xaridlarida manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlari [Conflicts of interest and affiliations in public procurement]. Available at: <https://old.anticorruption.uz/uzc/item/2022/12/16/davlat-xaridlarida-manfaatlar-toqnashuvi-va-affillanganlik-holatlari>
7. Anticorruption.uz. 32 milliard so'mlik davlat xaridlari natijasi komissiya ishtirokisiz baholanganini aniqlandi [It was revealed that the results of state procurement worth 32 billion soums were evaluated without the participation of the commission]. Available at: <https://old.anticorruption.uz/uzc/item/2023/04/11/32-milliard-somlik-davlat-xaridlari-natijasi-komissiya-ishtirokisiz-baholangani-aniqlandi>
8. Kun.uz internet-nashri. Andijonda 42 mlrd so'mlik yo'l loyihasini olib berishni va'da qilgan shaxslar qo'lga olindi [Individuals promising to arrange a 42 billion-soums road project in Andijan were detained]. Available at: <https://kun.uz/41128338>
9. Radjapov H. Bid Rigging in Uzbekistan: Collusive Schemes in Public Procurement and Their Signs for Detection. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2023, vol. 4, no. 8, pp. 128–134. DOI: 10.17605/OSF.IO/BHQCR.
10. Rizakulov S.S., Jumanov A.I. Digital Transformation of the Public Procurement System in Uzbekistan: Challenges of Implementation and Future Prospects. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2025, vol. 6, no. 6.
11. Kun.uz. Prosecutor General's Office reports significant quality issues in construction, initiates criminal cases. Available at: <https://kun.uz/en/news/2024/07/09/prosecutor-generals-office-reports-significant-quality-issues-in-construction-initiates-criminal-cases>
12. Daryo.uz. Jan.–July 2022: Uzbek road constructors misuse 6.1 bln soums. Available at: <https://daryo.uz/en/2022/09/06/jan-july-2022-uzbek-road-constructors-misuse-61-bln-soums>
13. Gazeta.uz internet-nashri. O'zbekistonda qurilish qanday qilib "korrupsiyasiz soha"ga aylantiriladi? [How the construction sector in Uzbekistan is being transformed into a "corruption-free sphere"]. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/29/no-corruption/>
14. Baseline report of the fifth round of monitoring of anti-corruption reforms in Uzbekistan. OECD CAN, 2024, p. 202.
15. Uzbekistan: Building Blocks for Integrated Transport and Logistics Sector Development. Washington, World Bank, 2020, p. 137.
16. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation – Staff Report. *IMF Country Report. International Monetary Fund*, 2024, Article A001, no. 210, p. 48.
17. Mardieva L. Public procurement: how can legislative reforms and technological innovation be harnessed to combat corruption? SSRN Westminster international university in Tashkent, 2023. DOI: 10.2139/ssrn.4615383.
18. Uzbekistan Public Expenditure Review: Better Value for Money in Human Capital and Water

Infrastructure. World Bank, 2022. Available at: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099143503032342898/pdf/P1731400b7033d022087b409217648dc35e.pdf>

19. UzDaily.uz. Accounts Chamber uncovers violations in public procurement worth 1.7 trillion soums in Q1. Available at: <https://www.uzdaily.uz/en/accounts-chamber-uncovers-violations-in-public-procurement-worth-17-trillion-soums-in-q1/>

20. Open Budget Survey 2023. HESPI. Available at: <https://hespi.org/open-budget-survey-2023/>

21. Reforming Public Procurement. OECD, 2019, p. 118. Available at: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2019/10/reforming-public-procurement_4846551d/1de41738-en.pdf

22. Osaka Declaration on Digital Economy. G20. 2019. Available at: <https://worldjpn.net/documents/texts/G20/20190629.O3E.html>

23. EBRD Sanctions System. EBRD. Available at: <https://www.ebrd.com/home/who-we-are/strategies-governance-compliance/ebrd-sanctions-system.html>

24. Debarment List. AIIB. Available at: <https://www.aiib.org/en/about-aiib/who-we-are/debarment-list/index.html>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3